

**MEVA-SABZAVOTCHILIK, G'ALLACHILIK VA CHORVACHILIK
KLASTER FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

*Magistr: Shorustamov Shavkat Shorasul o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, meva sabzavot, g'alla, chorva mollarining yetishtirish klasterlarida innovatsion rivojlantirish yo'llari haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: mevachilik, sabzavotchilik, g'allachilik, chorvachilik, eksport, import, integratsiya, kooperatsiya, jamg'arma.

Annotation: This article talks about ways of innovative development in clusters of fruit, vegetable, grain, and livestock production.

Keywords: fruit growing, vegetable growing, grain growing, cattle breeding, export, import, integration, cooperation, savings.

Аннотация: В данной статье говорится о путях инновационного развития кластеров плодоовощного, зернового и животноводческого производства.

Ключевые слова: плодоводство, овощеводство, зерноводство, животноводство, экспорт, импорт, интеграция, коопeração, сбережения.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Meva-sabzavotchilik sohasida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko'rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o'zaro integratsiya qilish, klasterlar (kooperatsiya) faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport hajmini oshirish maqsadida:

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra **2022-yil 1-yanvardan boshlab** Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinnarda – Jamg'arma) mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali quyidagilarga:

a) fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga – meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, ko'katlar va dorivor o'simliklar, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish uchun hosil qiymatining **50 foizigacha yillik 14 foiz** (shundan **2 foizi** bank marjasи) stavkada **6 oylik** imtiyozli davr bilan **12 oy** muddatga kreditlar ajratiladi;

b) meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchilarga – yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilishga talab etiladigan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun yillik **14 foiz** (shundan **2 foizi** bank marjasи) stavkada **12 oylik** "revolver" kredit ajratiladi. Bunda, ushbu kredit hisobidan klaster va kooperatsiyalarning tijorat banklaridan olingan boshqa kreditlarini so'ndirishga yo'l qo'yilmaydi.

2. Mazkur qarorning 1-bandida ko‘zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Respublika byudjetidan Jamg‘armaga **2 trillionso‘m** byudjet ssudasi ajratiladi.

Moliya vazirligi Qishloq xo‘jaligi vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga asosan kelgusi yillar hosilini moliyalashtirish uchun talab etiladigan mablag‘larning Jamg‘armaga ajratib borilishini ta’minlasin.

3. Belgilansinki, 2022-yil 1-martdan boshlab:

a) meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar) va fermer xo‘jaliklariga – eksport shartnomasi mavjud bo‘lib, meva-sabzavot **hosilini xavf-xatardan sug‘urtalash xizmatidan foydalanganda to‘langan** sug‘urta mukofotining **50 foizi**, biroq sug‘urta pulining **1 foizidan** ortiq bo‘lmagan qismi qoplab beriladi. Bunda, sug‘urta puli xavf-xatardan sug‘urta qilinayotgan hosil qiyematining **70 foizidan** kam bo‘lishi mumkin emas;

b) meva-sabzavotchilik klasterlariga (kooperatsiyalarga) – xorijdan malakali agronom, entomolog, laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining **50 foizi**, biroq bir oyga **1 nafar** mutaxassis uchun **1 ming AQSH dollari** ekvivalentidan oshmagan qismi Qishloq xo‘jaligi vazirligining tuman bo‘limlari orqali kompensatsiya qilinadi. Bunda, meva-sabzavotchilik klasterlariga o‘ziga biriktirilgan mahsulot yetishtiruvchilar uchun bog‘ va tokzorlarni barpo etish, sabzavot, kartoshka, poliz, dukkanakli va moyli ekinlarni yetishtirish bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi;

d) mazkur bandda ko‘zda tutilgan kompensatsiya xarajatlari Qishloq xo‘jaligi vazirligining buyurtmasi asosida O‘zbekiston Respublikasining Respublika byudjetidan moliyalashtiriladi.

4. Mazkur qarorning 1- va 3-bandlarida nazarda tutilgan preferensiya va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, ularni xarid qiluvchi tashkilot hamda tijorat banki o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga ega bo‘lgan, shuningdek, ushbu shartnomalarni Yagona elektron shartnomalar axborot portalida ro‘yxatdan o‘tkazgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat soliq qo‘mitasi (Sh.D. Kudbiyev) mazkur bandda nazarda tutilgan shartnomalarni Yagona elektron shartnomalar axborot portalida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun **2022-yil 1-fevralga qadar** texnik imkoniyatlarni yaratsin.

5. Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda Jahon bankining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida jalb etilgan **65 million AQSH dollari** miqdoridagi mablag‘lari hisobidan kichik agrologistika markazlarini barpo etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda **ikki oy muddatda** xususiy sektorni jalb qilgan holda kichik agrologistika markazlarini barpo etish tartibini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari Sh.M. G‘aniyev va J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI
CHORVACHILIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA CHORVA OZUQA
BAZASINI MUSTAHKAMLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, chorvachilik xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini yanada ko‘paytirish, shuningdek, aholining yirik chorvachilik xo‘jaliklari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati asosida (keyingi o‘rinlarda — kooperatsiya usulida) o‘z xonadonlarida chorva mollarini boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

paxta va g‘alla yetishtiruvchi subyektlar tomonidan 2 million hektar sug‘oriladigan yer maydonining 10 foiziga almashlab ekish ta‘minlanadigan yer maydonlari hajmi [1-ilovaga](#) muvofiq;

2022 — 2024-yillarda paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik va sholichilik klasterlari tomonidan tashkil etiladigan chorvachilik komplekslarida chorva bosh sonini ko‘paytirish va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish prognoz ko‘rsatkichlari [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Bosh vazir o‘rinbosari Sh. G‘aniyev, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (B. Norqobilov):

Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda mazkur qarorga [1-ilovaga](#) muvofiq hajmdagi yer maydonlarida beda va chorva ozuqa ekinlari ekilishini;

“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi hamda paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik va sholichilik klasterlari bilan birgalikda mazkur qarorga [2-ilovaga](#) muvofiq klasterlar tomonidan 500 — 1 000 boshga mo‘ljallangan chorvachilik komplekslari tashkil etilishini ta‘minlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari:

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda 2022-2023-yillarda har bir tumanda kamida 1 tadan go‘sht va sut mahsulotlarini

yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishslash va sotishni tashkil etsin;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda o‘zlashtiriladigan va bo‘sh turgan yer maydonlari hisobidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan chorva mahsulotlarini qayta ishslashni tashkil etgan go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga, aholiga chorva ozuqasini yetkazib berish sharti bilan, chorva bosh soniga mutanosib ravishda ozuqa yerlarining ochiq elektron tanlov asosida ijara ga berilishini ta’minlasin;

ozuqa bazasini yetishtirish uchun sug‘oriladigan yer maydonlari yetishmovchiligi mavjud bo‘lgan tumanlarda go‘sht va sut mahsulotlariga bo‘lgan iste’mol talabini to‘liq qondirish maqsadida kooperatsiya usulida go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslashni yo‘lga qo‘ygan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar chegaralari doirasida bir tumanda kooperatsiya usulida go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish hamda boshqa tumanda ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun ochiq elektron tanlov asosida sug‘oriladigan yerlar ajratishni ta’minlasin. Bunda, kooperatsiya usulida faoliyat olib boruvchi subyektlarga mazkur qarorda belgilangan barcha imtiyozlar qo‘llaniladi.

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra kooperatsiya usulida go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslashni yo‘lga qo‘ygan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga:

Oldingi tahrirga qarang.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan chorvachilik bo‘yicha, shu jumladan chorva komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollarini xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun umumiyligi qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya hamda kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiyligi qiymati 2,5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etiladi;

(4-bandning ikkinchi xatbosisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli *Farmoni* tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)

chorvachilik yo‘nalishida jalb qilinadigan xalqaro moliya institutlarining kredit mablag‘lari 10 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan ajratiladi.

Tijorat banklariga chorvachilik sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag‘larni to‘ldirish va modernizatsiya qilish uchun mazkur qaror qabul qilingunga qadar ajratilgan kreditlarning qaytarish muddatini o‘n yilgacha tadbirkorlarning arizalariga ko‘ra uzaytirish tavsiya etilsin.

5. Belgilansinki, 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2023-yil 31-dekabrga qadar:

qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan chorvachilik xo‘jaliklariga — o‘z xo‘jaliklarida va aholi xonadonlari bilan birgalikda kooperatsiya usulida yetishtirilib, go‘sht uchun realizatsiya qilingan yirik va mayda shoxli qoramollar tirik vaznining har bir kilogrammi uchun subsidiyaning miqdori 2 000 so‘mdan 4 000 so‘mga hamda sutning har bir litri uchun 200 so‘mdan 400 so‘mga oshiriladi. Bunda, subsidiya qo‘shilgan qiymat solig‘idan vaqtinchalik ozod qilish bo‘yicha imtiyoz amalda bo‘lgan davr uchun ham to‘lanadi;

chorvachilik xo‘jaliklari tomonidan kredit va lizing shartlari asosida xarid qilingan qishloq xo‘jaligi texnikalari kredit va lizing foizi xarajatlarining 10 foiz punktidan ortiq qismi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan respublika budgeti hisobidan qoplab beriladi;

ozuqa ekin yer maydonlarida yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan chorvachilik xo‘jaliklariga uning har bir getktari uchun 8 million so‘m miqdorida respublika budgeti hisobidan belgilangan tartibda subsidiya ajratiladi;

gidropponika usulida chorva mollariga ozuqa yetishtirish uskunalarini xarid qilish xarajatining 20 foizi respublika budgeti hisobidan qoplab beriladi. Bunda, mazkur uskuna qiymatining 100 million so‘mdan oshmagan qismi qoplanadi.

6. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha xorijdan olib kelinadigan, ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan ozuqa ekinlarini ekish, yig‘ish va ozuqa tayyorlash qishloq xo‘jaligi texnikalari, ularning butlovchi buyumlari va ehtiyyot qismlari, istisno tariqasida, 2025-yil 1-martga qadar bojxona to‘lovlaridan (qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona rasmiylashtiruvni yig‘imlaridan tashqari) va utilizatsiya yig‘imidan ozod qilinsin hamda tadbirkorlik subyektlariga “erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini 180 kungacha bo‘lgan muddatga kechiktirib to‘lashga ruxsat berilsin.

7. Suv xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda har bir tumanning konturlari kesimida vegetatsiya davrida ajratiladigan suv limitlari hamda ozuqabop ekin turlarining suvgaga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda, kundalik ravishda yangilab boriladigan sug‘orish grafiklari haqidagi axborotni o‘z ichiga oluvchi elektron onlayn platformani tashkil etsin.

8. Quyidagilarga:

a) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Sh. G‘aniyev, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari zimmasiga:

paxta va g‘alla yetishtiruvchi subyektlar tomonidan mazkur qarorga 1-ilovaga muvofiq hajmdagi yer maydonlarida beda va chorva ozuqa ekinlarini ekish;

paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik va sholichilik klasterlari tomonidan mazkur qarorga 2-ilovaga muvofiq chorvachilik komplekslarini tashkil etish;

har bir tumanda kamida 1 tadan go‘sht va 1 tadan sut yo‘nalishida go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan chorva mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish;

b) Davlat soliq qo‘mitasi raisi Sh. Kudbiyev zimmasiga:

yirik va mayda shoxli qoramollar tirik vaznining har bir kilogrammi uchun hamda sutning har bir litri uchun subsidiya olgan xo‘jalik subyektlari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tganligini nazorat qilib borish;

mazkur qarorga 1-ilovaga muvofiq hajmdagi yer maydonlarida beda va chorva ozuqa ekinlari ekilganligini nazorat qilib borish hamda har chorakda Chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirish Respublika kengashiga axborot kiritib borish;

v) suv xo‘jaligi vaziri Sh. Xamrayev zimmasiga elektron onlayn platformaning belgilangan muddatda ishga tushirilishini va uning doimiy ravishda yangilab borilishini ta’minalash;

g) Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi B. Norqobilov va “O‘zbekchorvanasl” agentligi direktori B. Atamurodov zimmasiga qarorning o‘z vaqtida va samarali ijro etilishini ta’minalash hamda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish yuzasidan Chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirish Respublika kengashiga hamda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish bo‘yicha javobgarlik yuklansin.

9. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Sh.M. G‘aniyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

Xulosa

Xulosa qilib shuni bildirish mumkinki, mevachilik, sabzavotchilik, g‘allachilik, don va boshqa ekinlarni yetishtirish mamlakat iqtisodiyotining eng asosiy qismi hisoblanib keladi, bu sohalarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, agarda bu yo‘nalishlar rivojlansa davlat iqtisodiyoti shu jabha orqali yukrak marralarga ega bo‘ladi. Bu sohalarning barchasi dehqonchilikga asoslangan, va albatta bu sohani rivojlantirish dehqon qo‘lida bo‘ladi. Dehqon boy bo‘lsa, mamlakat bozori ham, iqtisodi ham mo‘l-ko‘llikda bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2021-yil 15-dekabr, PQ-52-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrdagi PQ-52-son 1-ILOVA
2. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y., 07/21/52/1165-son; 27.04.2022-y., 07/22/225/0351-son; 07.10.2022-y., 07/22/387/0906-son)
3. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid me’yoriy hujatlar to’plami. 1 va 11 jild. T., “Sharq”, 1998.
4. A.A.Ribakov va S.A. Ostrouxova. “O‘zbekiston mevachiligi”. T., “O‘zbekiston”
5. N.N. Balashov. “Sabzavotchilik”. T., “O‘zbekiston”
6. T.Ostonaqulov. “Sabzavot ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi”, Samarqand, Zarafshon.
7. Bo’riyev X.Ch. , Abdullayev A, “Tomorqa sabzavotchiligi”, “Mehnat, 1994
8. Zuev. V. I, Abdullayev G. “Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi.